



IMOM ABU MANSUR AL MOTURDIY HAYOTI VA ILMIY MEROSI

Guliston davlat pedagogika instituti

*1- bosqich talabasi **Umurzoqov Bunyod***

*Ilmiy rahbar: **Mirzaliyev Ulug'bek***

Annotatsiya: Ushbu ishda islom aqidaviy tafakkuri taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan buyuk mutafakkir Imom Abu Mansur al-Moturidiy (870–944) hayoti va ilmiy merosi yoritiladi. Asarda mutafakkirning qadimgi Samarqandning Moturid qishlog‘ida tug‘ilib, yoshligidan Qur‘on va hadis ilmlarini chuqur o‘rganganligi, shuningdek, u ta‘lim olgan Samarqand ilmiy maktabining o‘rni haqida ma‘lumot beriladi. Moturidiy asos solgan Moturidiya aqidaviy maktabi, uning asosiy g‘oyalari — aql va naql uyg‘unligi, iymon, qadr-qazo, Allohning sifati, inson erki kabi masalalardagi qarashlari o‘rganilgan. Shuningdek, u qoldirgan yirik asarlar, jumladan “Kitob at-Tavhid”, “Ta‘vilotul-Qur‘on” kabi meroslarining islom ilohiyotidagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Imom al-Moturidiy, Moturidiy, haqida, kalom, islom ilohiyoti, Kitob at-Tavhid, Ta‘vilotul-Qur‘on, aql va naql, ilmiy meros, Samarqand ilmiy madrasasi

Kirish

O‘rta asrlar sharq uyg‘onish davrida ijod etgan buyuk mutafakkirlardan biri .

Abu Mansur al Moturdiy 870 yilda qadimgi Samarqandning Moturid qishlog‘ida tug‘ulgan . U dastlab ma‘lumotni otasi Muhammad ibn Mahmuddan olgan.

So‘ngra usha davrda boshlang‘ich maktablatda o‘qigan . Keyinroq esa ta‘limni Samarqandagi Roboti G‘oziyon masjididagi madrasalarda davom etirgan.

Hayotini katta qismi Samarqanda o‘tgan.



Alloma o'sha davrda "Hidoyatga boshlovchi imom" "Musulmonlar aqidasi"ni isloh etuvchi" "Sunnat va hidoyat ahli peshvosi" kabi yuksak etroflarga sazovor bo'lgan.

Imom Moturidiy tafsir, fiqh, aqida ilmlarga doir 15 yaqin nodir asar yozgan .

Bizgacha faqat "Kitob at-Tavhid" "Ta'vilotul Qur'on" kitoblari yetib kelgan.

Imom Mansur Al Moturdiy islom aqidaviy ilmining yirik namoyondasi kalom asoschilardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Imom Moturidiy haqida Alisher Navoiy o'zining " Nasoyil Muhhabat" asarida Moturdiyini "Sultonul muizzin" yani "Faxri olimlar sultoni" deya e'tirof etgani bejiz emas. Bu e'trof Moturdiyning nafaqat diniy, balki ma'naviy va Ilmiy merosini yuksak qadrlaganini yana bir bor ko'rsatadi . Imom Moturidiy "Kitobut tavhid" yani Allohni yagonaligini isbotlash asir ma'nbalardan biri hisoblanadi .

U Moturdiy aqidasiidagi birinchisi va asosidir mazkur asar yirik hajmli bo'lib o'zida "Ahl sunna val jamoa aqidasi" ning murakkab masalarini to'liq qamrab oladi. Unda islom dining asosini tashkil etuvchi aqida ilmini turli ma'salariga oid eng tug'ri fikrlar ilgari surilgan . Aqidada adashgan oqimning g'oyalari ilmiy nuqtayi nazardan tanqid qilingan. Allomaning " Ta'vilotul Qur'on " asarida sunniy aqidalarga qarashli zid aqidalarni rad qiladi va Abu Hanafiyning ta'limotiga suyangan holda ish qiladi. Mazkur kitobni Ilmiy va amaliy ahamiyati juda yuqori . U Qur'oni karim ta'fsiri buyicha yozilgan dastlabki asrlardan biri bo'lib aqil va naqil oyat va hadislar nuqtayi nazaridan sharhlangani bilan ajralib turadi . Boshqacha qilib aytganda bu asar Qur'oni karim Ahli sunna val jamoa aqidasi asosida ta'fsir qilingan . Ahli Sunna val jamoa aqidasiiga ikki yirik alloma Imom Moturidiy va Imom Asha'riy asos solgan ta'limotiga musulmonlarni ergashtiradi. Imom Moturidiy o'z ta'limotini hanafi mazhabiga asoslanib yaratgan bo'lsa . Imom Asha'riy ta'limoti Shofei mazhabiga asoslangan edi. Lekin ikkala allomaning ham asosiy maqsadiy yagona, unga erishish yo'llari mushtarakligidir . Imon Moturdiy hanafiylik ta'limotiga suyangan holda davr ta'labidan kelib chiqib uni yanada rivojlantiradi va



islom dini e'tiqodi asoslarini ta'rtibga soladi . Shu bilan u Movarounnahr islom ilohiyot maktabi rivojiga katta hissa qo'shadi . Allomani qarashlari va asos solgan ta'limoti " Kitobut tavhid " va " Ta'vilotul Qur'on " asarlarida ifodasini topgan. Muttafakirni ta'limoti Movarounnahr, Turkiston, Xuroson va hatto Hindiston musulmonlari o'rtasida keng tarqaldi .

O'zbekistonda Moturidiy merosini o'rganish faqat mustaqillikdan keyin kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar qarori bilan 2000 yilda Moturdiy tavvaludining 1130 yilligi O'zbekistonda keng nishonlandi . O'zbekiston pirizdenti

I.A.Karimov tashabbusi bilan Samarqand alloma xotirasiga yodgorlik bunyod etildi va Toshkent va Samarqanda Moturidiy ta'limoti va uni islom olamida tutgan mavqeyiga bag'ishlangan xalqaro anjuman o'tkazildi .

XULOSA

Imom Moturidiy o'z davrining eng buyuk allomalardan biri bo'lib uning merosi asirlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmagan . U Yaratgan aqidaviy ta'lim islom dining mo'tadil yo'nalishlaridan biri sifatida tan olinadi . Moturidiy ming asosiy tamoyili aqil , adolat , va e'tiqodagi muvozanatni bugungi kunda ham insoniyatni ezgulikka ilmga va totuvlikka chorlaydi . Shunday ekan Imom Moturidiy merosini o'rganish har bir tarixchi va ma'naviyotshinos uchun dolzarb vazifadir .

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

- 1) Imom Abu Al Moturdiy. SH.Ismoilov 2022
- 2) A.Azimov. Moturdiy va uni ta'limoti . Toshkent 2018
- 3) www.islam.uz, www.ziynet.uz